

YURIDIK SHAXSLAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI SHARTNOMASI

2022-yil 20 01

16-son

Nurota tumani

Navoiy hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ (keyingi o'rinlarda "Korxonasi" deb ataladi)ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari B.Islomov, bir tarafdin va Nurota XTB (markaz) (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) ning Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari B.Bobonazarov ikkinchi tarafdin, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

Ushbu shartnoma bilan "Korxonasi" tarmoqlari orqali elektr energiyasini (keyingi o'rinlarda - energiya deb ataladi) "Iste'molchi"ga etkazib berish, "Iste'molchi" esa iste'mol qilingan energiya haqqini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

II. Etkazib berilgan energiya hisobi

- 2.1. Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi: aktiv 3000 kVt.s., reaktiv kVar.s. tashkil etadi.
- 2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 450 so'm tarif bo'yicha 1 350 000 (Bir million uch yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.
- 2.3. Iste'molchining oylar kesimida bo'lingan yillik energiya xajmi ushbu shartnomaning I ilovasida keltirilgan.
- 2.4. "Iste'molchi" tomonidan haq to'lanishi lozim bo'lgan haqiqiy qabul qilib olingan energiyaning hajmi hisobga olish asboblarning (keyingi o'rinlarda- hisoblagichlar deb ataladi) ko'rsatkichlari asosida ushbu shartnomaning 2-ilovasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.
- 2.5. Vazirlar Mahkamasining 24.12.2008 yildagi 277-sonli qarori I ilovasida belgilangan ro'yxat asosida tabiiy monopoliya sub'ektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatiladigan iste'molchilar uchun energiyani minimal yillik xajmi 12000 kVt/soat tashkil etadi.

III. Hisob-kitob qilish tartibi

- 3.1. Energiya uchun hisob-kitoblar tabaqalashtirilgan bir stavkali yoki 08.11.2017 yildagi PQ-3379 qarori bilan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun tegishli tariflar asosida amalga oshiriladi.
- 3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) energiya uchun hisob-kitoblarni sutka vaqtlarining tabaqalashtirilgan tarifi bo'yicha amalga oshiradi.
Tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:
yarim tig'iz payt - sutkaning yorug' vaqtida (soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha) - o'rnatilgan tarif bo'yicha;
tig'iz payt - eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalaki eng katta miqdor soat 600 dan 900 gacha, kechki eng katta miqdor soat 1700 dan 2200 gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsientni ko'llash orqali;
tungi payt - sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarida: 2200 dan 2400 gacha va 0000 dan 600 gacha) - belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda kamayuvchi koeffitsientni ko'llash orqali amalga oshiriladi.
Belgilangan tarif II-tarif guruhidagi "Iste'molchi"larning bir stavkali tarifiga muvofiqdir.
Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan "Iste'molchi"ga energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.
Ulangan quvvati 750 kVAgacha bo'lgan "Iste'molchi"ga energiyani realizatsiya qilish narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxatiga kiruvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi "Iste'molchi" uchun Hukumat qarori bilan belgilanadigan tariflar qo'llaniladi.
- 3.3. Ushbu shartnoma bo'yicha hisob-kitob davri bir oy hisoblanadi, ya'ni xisobot oyning 1-sanasi dan keyingi oyning 1-sanasi gacha.

- 3.4. "Iste'molchi" har oyda "Korxonasi"ning vakolatli vakili ishtirokida hisob-kitob davri oxirida hisoblagichlar ko'rsatkichlarini yozib oladi va ushbu shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobotni tuzadi.
Iste'molchi tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida xududiy elektr tarmoqlari korxonasi belgilangan shakl bo'yicha oyning 01-sanasi dan 05-sanasi gacha bo'lgan muddatda o'z qo'li bilan, faksmil., elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan hisobot, iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo'lib hisoblanadi, ya'ni Bunda, to'lovlarni tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiruvchi, ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan "Iste'molchi" bo'yicha energiya (aktiv va reaktiv) sarfining to'liq hajmidan tashqari, alohida-alohida tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlardagi hajmlari ham aniqlanishi va ko'rsatib o'tilishi shart.

- 3.5. Energiya sarfi bo'yicha hisobot asosida "Korxonasi" o'rnatilgan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi, 5 kun ichida to'lash uchun hisob faktura va to'lov hisob varag'ini yozib beradi. "Iste'molchi"da turli tarif guruhlari tegishli bo'lgan bir nechta ob'ekt mavjud bo'lgan taqdirda, har bir tarif guruhi ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi.

- 3.6. Iste'molchilarga elektr energiyasini etkazib berish, ular tomonidan kelgusi hisobot davri boshlanguncha shartnomaviy miqdorning 100 foizi miqdorida oldindan xaq to'langandan keyin amalga oshiriladi, ya'ni "Iste'molchi"ga energiyani etkazib berish oyning 10-sanasi gacha hisobot oyi va kelgusi oy uchun shartnomada belgilangan 100 foizlik miqdor uchun oldindan haq to'lash asosida amalga oshirilgan taqdirda, elektr energiya uzatiladi, aks holda har oyning 11-sanasi dan boshlab iste'molchilar tarmoqdan ajratiladi.

- 3.7. Tariflar o'zgarganida "Iste'molchi" etkazib berilayotgan energiya uchun yangi tariflar kuchga kirgan kundan boshlab iste'mol qilingan energiya uchun yangi tariflar bo'yicha haq to'laydi.

- 3.8. Hisoblagichlar ushbu shartnomaning 4-ilovasidagi tomonlarning elektr tarmoqlari balans mansubligi va foydalanish bo'yicha mas'ulligini taqsimlash bo'yicha dalolatnomaga muvofiq aniqlanadigan elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisoblagich o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkadagi energiyaning texnologik sarfining hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu shartnomaga 5-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi.

Bunda, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiruvchi 750 kVA va undan yuqori bo'lgan quvvatga ulangan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanishi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib yoki umumiy texnologik sarf miqdoridan kelib chiqib har bir davr uchun mutunosib ravishda hisoblab, jami olingan energiya hajmining tegishli paytlariga to'lov hisob varag'ini yozish uchun mutanosib ravishda qo'shib boriladi.

3.9. Hisoblagichlar ko'rsatkichi yozib olinmagan yoki energiya sarfi to'g'risidagi hisobot "Iste'molchi" tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, "Korxonaga" tomonidan energiya iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davri uchun energiya iste'molining amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilishga haqli, bu haqda "Iste'molchi"ning hisob varag'ida tegishli ravishda qayd qilinadi.

Hisoblagichlar ko'rsatkichi nazorat tartibida "Korxonaga" vakili tomonidan yozib olingandan keyin "Korxonaga" tomonidan amalda iste'mol qilingan energiya uchun belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

3.10. "Iste'molchi"ning energiya uchun to'lovlar, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek hisobga olinmagan energiya qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi"ning aybi bilan ushbu shartnomada ko'rsatilgan energiya hajmi to'liq iste'mol qilinmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.11. SHartnomada keltirilgan hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilinganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha iste'mol qilingan energiyaning jami hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

3.12. "Iste'molchi" "Korxonaga" bilan birgalikda har oyda, hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.13. "Iste'molchi"ni elektr tarmoqlaridan uzish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda;

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan energiya uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

"Korxonaga" talabnomalari ijro etilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisoblagichlar ko'rsatkichlarini olish va hisoblash tizimi ulanish zanjirini tekshirish uchun ruxsat etilmaganda;

hisoblagichlar qasddan buzilganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashilganda;

elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj qilish yoki Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

3.14. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob "Iste'molchi"ni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.15. Iste'molchi tarmoqqa uning tomonidan qoidabuzarlik holati bartaraf etilib, mavjud qarzdorlik va to'lov paytidagi eng kam oylik ish xaqining o'n barobari miqdorida to'lov undirilgandan so'ng qayta ulanadi (ENHATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno, ENHATga ulangan iste'molchi degani: masofadan tarmoqdan ajratish imkonini bor iste'molchilardir).

3.16. Iste'molchi etkazib berilgan energiya uchun o'z vaqtida (shartnomada belgilangan muddatlarda) to'lamasa, Korxonaga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida (Energiya maxsus tartibda etkazib beruvchi korxonalar uchun 0,2foiz) lekin muddati o'tqazib yuborilgan summaning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

IV. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. "Iste'molchi" quyidagi huquqlarga ega:

o'zining elektr qurilmalarini texnik shartlarga muvofiq "Korxonaga" elektr tarmoqlariga ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lgan energiya olish;

energiya etkazib berishning tugatilishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

"Korxonaga"ga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish.

Bunda energiyaning shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin 10 kundan kechikmay (joriy oy tugaguncha) berilishi lozim;

energiya to'liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan energiya etkazib berilishi oqibatida etkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplatish;

qonun hujjatlariga muvofiq bir tarafdama tartibda shartnomani bekor qilish;

SHartnoma bekor qilganda foydalanilmagan energiya miqdori uchun to'langan summani qaytarilishini talab qilish;

energiya etkazib berilishi tugatilganda zararni qoplashni talab qilish;

SHartnomani tuzish va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga yoki bo'ysunishi bo'yicha yuqori tashkilotga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. "Iste'molchi" quyidagilarga majbur:

energiya iste'mol qilishni belgilangan rejimiga rioya etish;

foydalanilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ekspluatatsiya qilayotgan elektr tarmoqlar, asboblari, elektr qurilmalarining texnik holatini lozim darajada saqlanishini, shuningdek, elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, "Korxonaga" elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

energiyadan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

"Korxonaga" va "O'z davlat energonazorati" inspeksiyasining yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalarining talablarini bajarish;

belgilangan tartibda "Korxonaga"ning tegishli vakiliga hisoblagichlarni ko'rishga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin energiyaning zarur miqdori uchun "Korxonaga"ga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda energiyani elektr tarmoqlaridan uzatishda, mahsulot ishlab chiqarish (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritishga, isitishga, shamollatishga energiya sarfini, shuningdek ushbu elektr tarmoqlariga ulangan sub "Iste'molchi"larning ehtiyojini hisobga olish.

iste'mol qilinaётgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori, energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi, energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfini hisobga olishi va "Korxonaning talabiga ko'ra xabar qilishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.3. Korxonaning quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi"dan shartnomada belgilangan majburiyatlarni lozim darajada bajarilishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda "Iste'molchi" tomonidan etkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish;

elektr xo'jaligi ob'ektlarida avariya holatlar mavjud bo'lganda "Iste'molchi"ni elektr qurilmalarini o'chirish. "Iste'molchi" tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda "Iste'molchi"ni elektr tarmoqlardan o'chirish. shuningdek ENHATga ulangan yoki oldindan to'lov qurilmasiga ega hisoblagichi bo'lgan "Iste'molchi"larni oldindan to'lov tugagandan so'ng o'chirish.

"Korxonaning qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

"Korxonaning ushbu shartnomada ko'rsatilgan holatlardan tashqari bo'lgan o'chirish oqibatlarini uchun javobgar bo'lmaydi.

4.4. Korxonaning quyidagilarga majbur:

ulangan elektr tarmoqlar orqali "Iste'molchi"ga - elektr tarmoqlarining mansublik chegarasiga shartnomada belgilangan xajmdagi energiyani uzluksiz etkazib berish;

qurilmalarini, elektr uzatish liniyalarini, hisoblagichlarni ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek o'zining elektr xo'jaligi ob'ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr xo'jaligi ob'ektlarini ta'mirlash bilan bog'liq elektr ta'minotidagi uzilishlar to'g'risida uch kundan kechikmasdan ogohlantirish;

energiya etkazib berilishidagi to'xtashlar to'g'risida va to'xtashlarning sabablari to'g'risida "Iste'molchi"ga ma'lum qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida cheklashlarni xajmi va vaqti ko'rsatilgan xolda oldindan xabar berish;

"Iste'molchi"ning energiya etkazib berilmaganligi va elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi arizasini, "Iste'molchi"dan ariza olingan kundan o'n kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va to'laqonli javob yo'llash;

"Iste'molchi"ga etkazib berilgan energiya hisobini belgilangan tartibda olib borish;

"Iste'molchi"ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda energiyani oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, energiyani oylik shartnomaviy hajmini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - bu haqda, rad etish sabablarini ko'rsatgan holda "Iste'molchi"ga xabar qilish;

"Iste'molchi"ga o'rnatilgan hisoblagichlarni almashtirishni, o'rnatishni va ularga xizmat ko'rsatishni, shuningdek ularni plombalashni ta'minlash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartiga muvofiq bo'lgan energiya etkazib berish.

"Korxonaning qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, "Korxonaning buning natijasidagi etkazilgan zararni qoplashga majbur, "Iste'molchi" esa etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. "Korxonaning:

"Iste'molchi" energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmagan, energiya iste'molining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'ygan taqdirda, "Korxonaning tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan sutkalarda past sifatli energiya etkazib berilganligi uchun;

Zaxira manbaini avtomatik ulash, avtomatik qayta ulash va avtomatik davr-tezlikli o'chirishlarning ishlash vaqtida energiya etkazib berishdagi tanaffuslar uchun "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.

5.3. "Iste'molchi" engilmas kuch sharoitlari (fors-majbor) mavjud bo'lgandagi o'chishlar va boshqa holatlar uchun, "Korxonaning "Iste'molchi" oldida javobgar bo'lmaydi.

5.4. Ushbu shartnoma bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan amaldagi qonun, farmon, qaror, nizomlar asosida tartibga solinadi. Ular muzokaralar yo'li bilan xal etilmagan taqdirda, sudga hal etiladi.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Shartnoma 2022-yil 31-dekabr gacha bo'lgan muddatga tuziladi.

SHartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar joriy oyda qo'llanilmaydi, balki keyingi oydan kuchga kiradi.

Byudjet tashkilotlari uchun: Mazkur kelishuv taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolaniib G'aznachilik organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi

SHartnoma muddati o'tishi bilan, agar tomonlarning birortasi uni muddatini uzaytirish yoki bekor qilish to'g'risida ariza bermagan bo'lsa, u keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Ariza shartnomaning amal qilish muddati tugashiga bir oy qolguncha berilishi kerak.

6.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan, tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki nusxada tuzilgan. SHartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.3. SHartnoma tomonlarning birini tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinishi ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda, tomonlarning o'zaro hisob-kitob qilganlik sharti bilan amalga oshirilishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda taqdim qilinadi.

6.4. Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda bo'lgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa haqiqiydir.

VII. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari

“Iste’molchi”:

Yuridik manzili; Nurota tumani XTBga qarashli BABM

Pochta manzili; M.Raximov ko’chasi № 1 uy

Hisob raqami; 100022860122387096100075011

Bank kodi (MFO) 00014 (INN) 200030979

Iste’molchini yuridik manzili bo’yicha kadastr nomeri 1/377 Maxalla nomi M.Raximov ko’chasi № 1 uy

Respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan “Iste’molchi”lar uchun:

Byudjet fondning hisob raqami 23402000300100001010

Bank kodi (MFO) 00014 (INN) 201122919

Byudjetdan tashqari fondning hisob raqami 400122860122387092100075004

Bank kodi (MFO) 00014 (INN) 200030979

Telefonlar: 795231802 Faks:

(“Iste’molchi” telefon raqamlari, shu jumladan uning rahbarini uyali telefoni ko’rsatiladi)

Korxonasi: Pochta manzili Navoiy viloyati, Navoiy shaxri, Nizomiy ko’chasi 22 uy

Hisob raqami 22636000900306363365

Bank kodi (MFO) 00207 STIR (INN) 200002553

Telefonlar: (79) 532-25-70

Faks: (79) 532-22-87

Statistik kodlar:

DBIBT (SOOGU) 1013

MIOBT (SOATO) 1712401366

Iste’molchi

Nurota XTB markazi

B.Bobonazarov



Korxonasi

«Navoiy HETK» AJ bosh direktori

B.Islomov

ETK boshlig’i X.Yo’ldoshev

ETK xisobchisi B.Xujakulov



Huquqshunos
xulosasi:

(imzo) Yodgorov Xurshid Ruzikulovich

Etkazib beriladigan energiya hajmi

1. Tarif guruhi _____
2. Faoliyat turi _____ Ta'lim _____
3. "Iste'molchi" elektr qurilmalarining ulangan quvvati: _____ kVA (kVt)
Texnik shart raqami № _____ sanasi _____
4. Texnik shartlarga muvofiq ruxsat etilgan quvvat _____ kVt.
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) _____
6. Hisob-kitob turi: _____
7. _____

tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki 08.11.2017 yildagi PP 3379 qarori bilan tasdiqlangan ro'yxat

bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun tarif (keraklisi yozilsin) (kerakligi yozilsin)

8. Iste'molchi joylashgan maxalla nomi _____

	Energiya hajmi ming. kVt.s	SHu jumladan, tarif guruhlari bo'yicha			
Yil, jami	3000				
YAnvar	1000				
Fevral	1000				
Mart	1000				
April					
May					
Iyun					
Iyul					
Avgust					
Sentyabr					
Oktyabr					
Noyabr					
Dekabr					

Korxonada bir kunda _____ soat, bir oyida _____ kun ishlaydi.

Smenalar bo'yicha yuklama taqsimoti (foiz hisobida) I _____, II _____, III _____.

Iste'molchi

Nurota XTB BABM

B. Bobonazarov



Imzolar:

Korxonada


«Navoiy HETK» AJ bosh direktori

B. Islomov

ETK boshlig'i U. Farmonov

ETK xisobchisi B. Xujakulov

ESD va SHXK RA X. Yuldashev



Energiya hisoblagichlari o'rnatilgan joylari va tavsiflari

Iste'molchilarni (subiste'molchilarni) Hisoblagichlari o'rnatilgan joylar, kuchlanish sinfi (kV) va hisobga olish asbobi turi ko'rsatilgan xolda	Hisobga olish asbobi turi (aktiv, reaktiv), (nominal toki)	Hisobga olish asbobi raqami	Hisobga olish asbobi klemma qopqog'idagi, plombaning nomeri		O'lchov transformatorlarining transformatsiya koeffitsienti		Hisob-kitob koeffitsienti	SHartnoma tuzish sanasiga hisobga olish asbobi ko'rsatkichi	Tarif turi sum/
			1	2	Tok	Kuchlanish			1 kVt.s.
manyc									4500
unt qg									

Imzolar:

Iste'molchi



B. Bobonazarov

Korxonona

«Navoiy HETK» AJ bosh direktori

B. Islomov

ETK boshlig'i U. Farmonov

ETK xisobchisi B. Xujakulov

ESD va SHXKRX X. Yuldoshev



Energia (aktiv, reaktiv) sarfi bo'yicha
HISOBOT

20 ___ yil _____ oyi bo'yicha

Ko'rsatkichlar qayd etilgan sana « ___ » _____ 20 ___ yil.

Ulanmaning nomi, hisoblagichning zavod nomeri, hisobga olish turi (aktiv, reaktiv)	Hisob-kitob koeffitsienti			Hisoblagich ko'rsatkichlari		Hisoblagich kursatkich- larining farqi	Sarf kVt.s. , kVAr. s.	Tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha sarf kVt.s.				
	tok transfor- matorining (TT)	kuchla- nish trans- forma- torining (KT)	umu- miy	boshl ang'ic h	oxirgi			Erta - labk i mak sim um	Kun	Kech ki maks -mum	Tun	
											soat 6-9	soat 9-17
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Jami												

Izoh: gr 7= gr 6- gr 5, tabaqalashtirilgan hisob uchun nazorat raqami gr 7= gr 9+gr10+gr11+gr12+gr13
gr 8 = gr 7*gr 4

"Iste'molchi" rahbari

B. Bobonazarov F.I.SH.

Bosh energetik

F. I. SH.

"Korxonasi" vakili



Tomonlar elektr tarmoqlarining balans mansubligi va ekspluatatsiya qilish bo'yicha mas'ullik chegarasi DALOLATNOMASI

1. "Iste'molchi"ning balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) xavo liniyalari _____

b) kabel liniyalari _____

v) nimstansiyalar, transformator nimstansiyalari _____

2. "Iste'molchi" va "Korxonasi" o'rtasidagi elektr tarmoqlarning balans bo'yicha mansublik chegarasi:

3. Ulardan quyidagilarga: _____ aniqlanadi.

a) uzun _____

xizmat ko'rsatish "Iste'molchi" xodimlari tomonidan,

b) Телекоммуникационная служба _____
"Iste'molchi" bilan tuzilgan shartnoma asosida elektr ta'minoti korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik chegarasi quyidagicha belgilandi:

Маълумот chegarasidagi ketmish _____
бағро Э.А. ушқун доғриқ естемончи исаробтоғ.

Vakillar:

Korxonasi



ETK boshlig'i U. Farmonov [Signature]
ETK bosh muxandisi A. Xaydarov [Signature]
ESD va SHXKR X. Yuldoshev _____



Energiya yo'qolishlarini aniqlash bo'yicha DALOLATNOMA

Energiya hisoblagichlar elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining mansublik chegarasidan hisoblagich o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkadagi hisoblash yo'li bilan aniqlangan energiyaning texnologik yo'qolishlari bu:

a) Quvvati _____ kVA bo'lgan transformatorlardagi oylik aktiv energiyaning yo'qolishlari _____ kVt.soat yoki _____ foizini, reaktiv energiya yo'qolishlari _____ kVAr.soat yoki _____ foizini tashkil etadi;

b) «Iste'molchi»ning kabel liniyalaridagi har oylik energiya yo'qolishlari: Uzunligi _____ m;

Kesim yuzasi _____ mm²;

Rusumi _____ ;

Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ foizni tashkil etadi;

v) «Iste'molchi»ning havo liniyalaridagi har oylik energiya yo'qolishlari: Uzunligi _____ m;

Kesim yuzasi _____ mm²;

Rusumi _____ ;

Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ foizni tashkil etadi.

Jami har oylik energiya yo'qolishlari hajmi hisob-kitob davridagi energiya sarfining _____ foizini tashkil etadi.

Maishiy iste'molchilarning elektr energiyasini hisobga olish asboblari gacha bo'lgan elektr tarmoqlaridagi elektr energiya yo'qotishlari hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi va uy-joy mulkdorlari yoki kommunal ekspluatatsiya tashkilotlari iste'molchilarga qaratiladi. Ushbu hisob-kitob 8-ilovada qayd qilingan.


Vakillar:

Iste'molchi

Korxonasi

B. Bobonazarov



ETK boshlig'i U. Farmonov 
ETK bosh muxandisi A. Xaydarov 
ESD va SHXKRX X. Yuldoshev



Kompensatsiya qurilmalarining ishlash rejimi
 1. Kompensatsiya qurilmalarining o'rnatilgan quvvati

T/r №	Kompensatsiya qurilmalarining turlari	Quvvati	Ulanish vaqti		Jami
			Ertalab	Kechqurun	
1.	Kondensatorlar, kVAR 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori, jumladan:				
1.1.	Avtomatik rostdash bilan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori,				
1.2.	Dastakij rostdash bilan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori,				
2.	Sinxron dvigatellar - (SD), kVt				
3.	SDning reaktiv quvvati, kVAR (SDning o'rnatilgan quvvatining 30 foizi, kVt)				
4.	Jami (1b.+3b.) kVAR: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori.				

2. Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori

Yil, oy	Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori (kVAR.soat)	SHu jumladan		SHu jumladan tarif guruhlari bo'yicha			Quvvat koeffitsenti ko'rsatkichi	
		Katta yuklamali soatlarda 6-00dan 22-00 soatgacha (kVAR.s)	Kichik yuklamali soatlarda 22-00dan 6-00 soatgacha (kVAR.s)				Katta yuklamali soatlarda 6-00 dan 22-00 soatgacha	Kichik yuklamali soatlarda 22-00 dan 6-00 soatgacha
							$\cos \varphi$	$\cos \varphi$
Yanvar						$\cos \varphi =$	$\cos \varphi =$	
Fevral								
Mart								
Aprel								
May								
Iyun								
Iyul								

Avgust								
Sentyabr								
Oktyabr								
Noyabr								
Dekabr								

Reaktiv energiyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffitsientining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyaning ushbu shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Hisobot davrining yakuni bo'yicha reaktiv energiya iqtisodiy qiymatining amaldagi miqdori iste'mol qilingan aktiv energiya va quvvat koeffitsientining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ustama qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda aktiv energiya uchun quyidagi miqdorda aniqlanadi:

Aktiv energiyaning xaqiqiy iste'molidan quvvat koeffitsientining shartnomaviy qiymati natijasi bo'yicha aniqlanadigan reaktiv-energiya reaktiv-energiya xaqiqiy iqtisodiy qiymat doirasida iste'mol qilinganda 10%-aktiv energiyaning xaqiqiy iste'molidan va quvvat koeffitsientining shartnomaviy qiymati natijasi bo'yicha aniqlanadigan reaktiv energiya reaktiv energiya iqtisodiy qiymat miqdoridan ortiq iste'mol qilinganda

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun elektr energiyasi tarifiga ustamalar jarima sanksiyasi hisoblanmaydi va elektr ta'minoti shartnomasiga asosan undiriladi.

Reaktiv energiya o'rni etarlicha to'ldirilmasligi hisobiga quvvat koeffitsientining normativ qiymati iste'molchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi aniqlanganda, korxonada tomonidan belgilangan tartibda elektr energiya yo'qolishi qiymatining texnik iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshiradi, shuningdek quvvat koeffitsienti ko'rsatkichlari belgilangan normativlarga nisbatan rasaytirilgani uchun iste'molchilardan qo'shimcha mablag'lar undiradi.

Bunda, bu hisoblar va qo'shimcha mablag'larni undirish "Iste'molchi" tomonidan quvvat koeffitsient ko'rsatkichlarini hisobot davrida shartnomada ko'rsatilgan qiymatdan pasaytirilgani to'g'risidagi

"O'zdavenergonazorat" inspeksiyasining tasdig'i mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

Tarif chegirmalari iste'molchi yagona elektr energetika tizimi tarmog'ida elektr tarmog'ining katta yuklamali soatda reaktiv energiya hosil qilganda va elektr tarmog'ining kichik yuklamali soatlarda yagona energiya tizimi tarmog'idan reaktiv energiya iste'mol qilinganda, agar iste'molchining bunday rejimda ishlash zarurati shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, taqdim etiladi.

CHegirma qo'shilgan qiymat, solig'i hisobga olinmagan holda aktiv energiya uchun amaldagi tarifining 15% miqdorida belgilanadi.

Iste'molchi

Korxonada

«Navoiy HETK» AJ bosh direktori

B. Islomov

ETK boshlig'i

ETK EEOX va TQB muhandisi



Avariya va texnologik bronni aniqlash bo'yicha
DALOLATNOMA

Tuzildi _____

“Iste'molchi”ning vakili ishtirokida _____

YAgona elektr energetikasi tizimida uzoq muddatli yoki qisqa muddatli quvvat tanqisligi yuzaga kelganda “Iste'molchi” quyidagilarni bajarishi kerak:

1. Uskuna yuklamasini texnologik bron darajasigacha pasaytirish:

T/r №	Texnologik broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi*	Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt)	Izoh
1.			
2.			
3.			
4.			

Jami: _____ kVt

*a) Barcha sexlar va agregatlar zudlik bilan o'chiriladi. O'chirilishi yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishi, uskunaning buzilishi, portlash, yong'in, zaharlanish va boshqa baxtsiz hodisalarga olib keluvchi sexlar va agregatlar bundan mustasno.

b) Texnologik broniga shuningdek avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar ham kiradi (2-bandga qarang.)
Texnologik bronni cheklash bosqichlari:

- I bosqich _____ kVt
- II bosqich _____ kVt
- III bosqich _____ kVt
- IV bosqich _____ kVt

2. _____ o'tganidan keyin sexlar va agregatlar avariya bronni darajasigacha uzib quyiladi.

T/r №	Avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi*	Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt)	Izoh
1.			
2.			
3.			
4.			

Jami: _____ kVt

* a) YUklama ostida o'chirilishi suv ta'minoti, aloqa vositalari ishining to'xtashiga, isitish tizimining muzlab qolishiga olib keluvchi sexlar va agregatlar hamda qo'riqlash yoritish tizimi qoldiriladi.

b) Avariya broniga zaxiradagi yong'inga qarshi nasoslar va boshqa yong'inga qarshi agregatlar taalluqli emas. (ushbu agregatlar, kerak bo'lishiga qarab, oldindan “Korxonasi” bilan kelishilgan holda ro'yxatga kiritilishi mumkin).



Iste'molchi

B. Bobonazarov

M.O'.

Korxonasi

«Navoiy HETK» AJ bosh direktori

B. Islomov

ETK boshlig'i U. Farmonov

ETK EEOX va TQB muhandisi



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№

1. Loyihaning turi

Shartnoma

2. Loyihaning nomi

Elektr energiyasi yetkazib berish to'g'risidagi shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchi tashkilot va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Nurota tuman xalq ta'limi bo'limi 20.01.2022 yil

Nurota tuman xalq ta'limi bo'limi bilan "Navoiy hududiy elektr tarmoqlari" AJ o'rtasida rasmiylashtirilgan mazkur shartnoma amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

Bosh yuristkonsult



Sh.Soliyev

26.01.2022 yil

